SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/5 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Fargʻona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abdullaev Ulug'bek Saydanovich*
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR ........ 10-14

*Shukurillayev Yunus Asrorovich*
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI ........ 15-19

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ ........ 20-25

*Xusanov Xabibullo Xakimovich*
O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ........ 26-30

*Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna*
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR ........ 31-38

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT........ 39-42

*Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li*
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI ........ 43-48

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Исламутдинов Вадим*
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 49-54

*Melibaeva Gulxon Nazrullayevna*
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA........ 55-65

*Ульмас Ибрагимов*
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ........ 66-75

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Salomova Hakima Yusupovna*
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI ........ 76-83

*Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom*
YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA........ 84-90

*Djo'raev Anvar Muxamadiyevich*
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI ........ 91-96

*Каримова Гулчехра Самадовна*
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-ЭТИЧЕСКИХ ........ 97-101

*Гайбуллаев Жавлон Шавкатович*
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ ........ 102-105

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 106-110

*Taylyakova Feruzaxon Sultanovna*
OʻZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 111-116

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA ........ 117-120

*Yarashov Sarvar Norqul oʻgʻli*
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TAʻSIRI ........ 121-125

*Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux*
ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN’AT FALSAFASI ........ 126-130

*Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин*
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ ........ 131-135

*Kurbanbaeva Ulbosin Jumagʻalievna*
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI ........ 136-139

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Miqumova Dilafruz*
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA’FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE’RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI ........ 140-147

*Xoʻjamqulov Anvar, Togʻayeva Shoxnoza*
TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI ........ 148-159

*Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon*
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS ........ 160-163

*Mamatova Feruza Maxammadovna*
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 164-168

*Burxonova Gulmira Olimjon qizi*
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI ........ 169-172

*Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara*
BOGʻLOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA ........ 173-177

*Musurmonova Barchinoy Hasan qizi*
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI ........ 178-182

*Яркулова Фотима Усмановна*
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ........ 183-186

*Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR ........ 187-190

*Musoeva Hayitgul Urokovna*
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" ........ 191-195

*Yuldasheva Kamola*
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR ........ 196-202

*Matkarimova Malika Oybek qizi*
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS ........ 203-206

Kamola Hatamova
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Uralov Sharof Urazaliyevich*
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ........ 211-216

*Mamatmurodov Farrux*
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 217-222

*Муталипова Лола Фархадовна*
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 223-234

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ . 235-241

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ........ 242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI ........ 247-252

*Namozova Dilorom Tursunovna*
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI ........ 253-261

*Давыдова Руфина Артуровна*
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ ........ 262-266

*Gaziev Baxromjon Valievich*
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI ........ 267-273

*Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi*
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI ........................................ 274-279

*Rakhmonova Dilnura Saidovna*
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:
AMALIYOT VA TAJRIBA .................................................................................................................. 280-286

*Yakubova Barno Baxtiyorovna*
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH ................................................................ 287-290

*Rixsiboyev Behzod Alisherovich*
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI ........ 291-295

*Islamova Moxichexra Bekmurzayevna*
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI ..... 296-301

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 2 June 2025
**Accepted:** 15 June 2025
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

# LINGUISTIC MEANS OF CREATING IMAGERY AND SYMBOLS THROUGH LEXICAL UNITS IN UZBEK AND ENGLISH

**Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna**
Denov University of Entrepreneurship and Pedagogy
PhD Student in the Specialty of Languages and Literatures of European, American, and Australian Peoples
E-mail: johnsonelif7@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes the role of lexical units in the creation of images and symbols in the Uzbek and English languages. Language is not only a means of communication but also a powerful tool for conveying cultural and spiritual values through imagery and symbolism. The study explores how metaphors, metonymy, phraseological units, and symbolic expressions are used in both languages to construct semantic depth. It compares the specific cultural and linguistic features of Uzbek and English that shape how images and symbols are formed. Particular attention is paid to the challenges of translation, such as semantic loss or misinterpretation of symbolic meanings across languages. The article aims to identify and analyze the functional capacity of these lexical units, revealing the national identity reflected through linguistic imagery. This comparative approach highlights the richness and diversity of expressive means in both languages and contributes to a better understanding of intercultural linguistic communication.

**Keywords:** lexical units, image, symbol, metaphor, figurative expressions, phraseological units, semantics, cultural mindset, stylistics, translation challenges, English language, Uzbek language, symbolic meaning, linguistic devices, national identity.

# O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR

**Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna**
Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Universiteti
Yevropa, Amerika Va Avstraliya Xalqlari Tili Va Adabiyoti Ixtisosligi Tayanch Doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi leksik birliklarning obraz va ramzlarni shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Til — nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy-ma'naviy qadriyatlar aks etgan obrazlar va timsollarni yaratish vositasidir. Maqolada metafora, metonimiya, frazeologizmlar, ramziy birliklar, timsollar orqali har ikki tilning semantik imkoniyatlari ochib beriladi. O'zbek va ingliz xalqlarining mentalitetiga xos ma'no qatlamlari va obraz yaratish usullari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvistik va madaniy kontekstda bunday birliklarning tarjima jarayonidagi semantik noaniqliklari, ramziy ifodalarni izohlashdagi murakkabliklar ham ko'rib chiqiladi. Maqola o'zbek va ingliz tillaridagi milliy rang-baranglikni ifodalovchi leksik vositalarni aniqlash, ularning funksional imkoniyatlarini ochib berish va o'zaro uyg'unlikda tahlil qilishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** leksik birliklar, obraz, ramz, metafora, timsollar, frazeologizmlar, semantika, madaniy tafakkur, stilistika, tarjima muammolari, ingliz tili, o'zbek tili, ramziy ma'no, til vositalari, milliy o'ziga xoslik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N32

**Kirish.** Til insoniyat tafakkuri, madaniyati va ongining muhim ifoda vositasi bo'lib, u orqali nafaqat muloqot amalga oshiriladi, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, an'analari, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlari ham aks ettiriladi. Har bir tilning leksik tizimi o'ziga xos

obraz va ramzlar tizimini vujudga keltiradi. Til birliklari, ayniqsa, leksik birliklar – ya’ni so‘zlar, barqaror iboralar, frazeologik birikmalar, metafora, metonimiya va boshqa semantik vositalar tilda obraz va timsollarni yaratishning asosiy manbalaridan biridir. Obrazlilik — bu til orqali berilayotgan axborotga estetik va hissiy tus berish vositasi bo‘lib, ramz esa ko‘proq chuqur, ko‘p qatlamli ma’noni ifodalovchi element sifatida xizmat qiladi. O‘zbek va ingliz tillarining lingvistik xususiyatlari, tarixiy shakllanish jarayoni, madaniy konteksti va xalqona tafakkur shakllari farqli bo‘lishiga qaramay, har ikkala tilda ham obraz va ramzlarni ifodalovchi leksik birliklar keng qo‘llaniladi. Ushbu vositalar til egasining hayot tarzini, qadriyatlar tizimini va dunyoni idrok etish modelini ochib beradi. Ayniqsa, frazeologizmlar va metaforik ifodalarning har bir til uchun milliy xususiyatga ega bo‘lishi, tarjima jarayonida muayyan semantik yo‘qotishlar yoki moslashtirish zaruratini tug‘diradi. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik birliklar orqali qanday obraz va ramzlar yuzaga kelishi, ularning lingvistik va madaniy asoslari, shuningdek, qiyosiy tahlil asosida o‘zaro umumiylik va farqlar aniqlanadi. Mavzuning dolzarbligi til va tafakkur uyg‘unligini o‘rganish, madaniyatlararo muloqotni chuqur anglash hamda tarjima amaliyotida ramz va obrazlarning to‘g‘ri talqin etilishi bilan bevosita bog‘liqdir.

**Adabiyotlar va metodik tahlil.** Tadqiqot mobaynida o‘zbek va ingliz tillarida obraz va ramzlarni yuzaga keltiruvchi leksik birliklarning semantik-strukturaviy xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Bu jarayonda tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid fundamental manbalar asos qilib olindi. G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ilgari surilgan metafora nazariyasi obrazlilikning kognitiv asoslarini tushunishda muhim nazariy zamin bo‘lib xizmat qildi. Ularning ta’kidlashicha, metaforalar nafaqat tildagi bezak unsurlari, balki inson tafakkurining strukturaviy qismidir. Masalan, “hayot — sayohat” singari metafora har ikki tilda uchraydi, biroq ularning madaniy talqini farqlidir [1]. D. A. Cruse o‘zining semantika va pragmatikaga oid tadqiqotlarida leksik birliklarning konnotativ, denotativ va stilistik qatlamlariga alohida e’tibor qaratgan. Aynan shu asosda frazeologizmlarning ramziy mohiyati va ularning kontekstual talqinlari o‘rganildi [2]. O‘zbek tilidagi frazeologizmlar bo‘yicha G. Abdullayeva va A. Mamajonovning ishlari asos qilib olindi. Ular o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va milliy madaniyatida timsollikning shakllanishiga oid misollarni tahlil qilib, “yuragi tosh”, “qulog‘iga qum solmoq”, “ko‘ngli yorishmoq” kabi iboralarni semantik jihatdan tasniflaganlar [3;4]. Shuningdek, P. Kussmaul tarjimashunoslikda frazeologik birliklarni adekvat tarjima qilish bo‘yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqqan. U tarjimada ramziy ifodalarni aynanlik emas, balki funksional muvofiqlik asosida talqin qilish zarurligini ta’kidlaydi [5]. U. Yusupovning tadqiqotlari esa tarjimada interferensiya va madaniy tafovutlarning til birliklariga ta’siri haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Aynan uning asarlarida o‘zbek tilidagi obrazlar ingliz tiliga ko‘chirilganda qanday semantik siljishlar sodir bo‘lishi mumkinligi misollar asosida ko‘rsatilgan [6]. D. Crystal va M. Halliday esa leksik birliklarning nutqdagi funksional roli va tildagi timsoliy tuzilmalarning ijtimoiy va psixologik asoslarini aniqlashga yordam bergan. Ularning funksional tilshunoslik yondashuvlari orqali har ikki til tizimidagi timsoliy birliklarning kommunikativ vazifalari tahlil qilindi [7;8]. D. Normurodovning o‘zbek tilida obraz ifodalari va ramzlarning vujudga kelishida urf-odat, diniy-ma’naviy tasavvurlar va estetik tushunchalar qanday rol o‘ynashi haqida bergan mulohazalari ham tahlilga asos bo‘ldi [9].

**Natijalar va muhokamalar.** Tadqiqot davomida o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik birliklarning obraz va ramz yaratishdagi o‘rni, ularning semantik va madaniy xususiyatlari

tahlil qilindi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, har ikkala til ham obrazlilik va ramziylik jihatidan boy imkoniyatlarga ega boʻlib, bu xususiyatlar asosan metafora, metonimiya, frazeologizmlar va timsollar orqali ifodalanadi[10]. Oʻzbek tilida ramziy maʼno koʻproq xalq ogʻzaki ijodi, diniy tasavvurlar va milliy qadriyatlar bilan bogʻliq boʻlsa, ingliz tilida bu hodisa tarixiy, adabiy va ijtimoiy kontekstda namoyon boʻladi. Frazeologik birliklarning ramziy mohiyatini tahlil qilish orqali shuni aniqlash mumkinki, ayrim birikmalar har ikki tilda mazmun jihatidan oʻxshash boʻlsa-da, ularning tasviriy ifoda shakllari va madaniy asoslari turlicha. Masalan, oʻzbek tilidagi "yuragi tosh" iborasi ingliz tilida "heart of stone" bilan mos keladi, biroq bu ikki ifodaning emotsional yuklamasi va ishlatilish doirasi bir-biridan farq qilishi mumkin.[11.12] Muhokamalar shuni koʻrsatadiki, leksik birliklar orqali yuzaga keladigan obraz va ramzlar faqat tilga emas, balki xalqning milliy mentalitetiga, tarixiy tajribasiga va axloqiy meʼyorlariga ham bevosita bogʻliq. Tarjimada esa ushbu birliklarning toʻgʻri talqin etilishi, ularning madaniy konnotatsiyasini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki obraz va ramzlarni oʻz holicha tarjima qilish ularning chuqur maʼnosini yoʻqotib qoʻyish xavfini tugʻdiradi. Shuningdek, lingvistik tahlillar tasdiqladiki, har ikki tilda ham ramziy leksik birliklar xalqning hayotiy tajribasi va dunyoqarashining inʼikosi sifatida til vositasida mustahkam joy egallagan. Shuning uchun bu turdagi birliklar til oʻrganishda, tarjimada va madaniyatlararo kommunikatsiyada alohida eʼtiborni talab qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida oʻzbek va ingliz tillarida obraz va ramzlarni shakllantiruvchi leksik birliklarning semantik-strukturaviy jihatlari hamda ularning madaniy-pragmatik funksiyalari aniqlab berildi.[13] Leksik birliklar — ayniqsa, metafora, metonimiya, frazeologik birikmalar va boshqa figurativ vositalar — tildagi tasviriylik, timsollilik va ramziy ifodaning uzviy tarkibiy elementi sifatida namoyon boʻlishi tasdiqlandi. Oʻzbek tilida obraz va ramziy qatlamlar koʻproq milliy ong, xalq ogʻzaki ijodi, urf-odatlar va diniy-estetik qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliq ekani aniqlandi. Ingliz tilida esa bunday birliklar tarixiy-ijtimoiy kontekst, adabiy anʼanalar va individual ekspressivlik asosida shakllangan boʻlib, ramz va obrazlar mantiqiy-assotsiativ asosda rivojlanadi. Frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish orqali, yuzaki semantik oʻxshashliklarga qaramay, ularning konnotativ yuki, stilistik roli va madaniy semiosferadagi pozitsiyasi mutlaqo turlicha boʻlishi aniqlangan. Misol uchun, oʻzbek tilidagi "yuragi tosh" iborasi va ingliz tilidagi "heart of stone" ifodasi denotativ jihatdan bir-biriga yaqin boʻlsa-da, ularning emotsional registri va kommunikativ funksiyalari kontekstga qarab sezilarli darajada farq qiladi.[14] Obraz va ramzlarni yuzaga keltiruvchi leksik birliklar nafaqat til tizimining komponentlari, balki madaniy kod sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular milliy identitetni ifodalovchi semantik konstruksiyalar boʻlib, ayniqsa tarjima jarayonida ularning madaniy-maʼnoviy qatlamlarini anglash va toʻgʻri talqin qilish zarur. Aks holda, leksik birliklar orqali uzatiladigan ramziy mazmunlar buzilishi, semantik adekvatlikning yoʻqolishiga olib keladi. Har ikki til tizimi ramziy ifoda vositalari jihatidan serqirra boʻlib, ular xalqning estetik qarashlari, mentaliteti va ijtimoiy ongining aksidir. Ushbu birliklar tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalari uchun chuqur nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. [15.16]

**Xulos.** Oʻzbek va ingliz tillaridagi leksik birliklarning obraz va ramzlarni yuzaga keltirishdagi funksional vazifasi tahlili, ushbu ikki tilning madaniy, tarixiy va mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim jihat ekanini koʻrsatdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, leksik birliklar – ayniqsa frazeologik ifodalar, metaforik vositalar va timsollar – tilshunoslikda nafaqat nutqiy bezak, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari,

psixologiyasi va estetik tafakkurini ifodalovchi kuchli vosita sifatida maydonga chiqadi. Ingliz tilida ramzlar koʻproq universal va global xarakter kasb etsa, oʻzbek tilida esa ular milliylik, mentalitet va tarixiy tajribalar bilan bevosita bogʻliq. Jumladan, ingliz tilidagi "a white dove" (oq kaptar) tinchlik timsoli sifatida xalqaro kontekstdagi tasavvur bilan uygʻunlashgan boʻlsa, oʻzbek tilidagi "koʻngli yorishmoq" yoki "koʻz tegmoq" kabi iboralar faqatgina oʻziga xos milliy obrazlilikni ifodalaydi. Shuningdek, ramziy va obrazli ifodalarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar, konnotatsiyalar farqi va madaniy intertekstuallik ham ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Bu jihatlar tarjima nazariyasi, til oʻrgatish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiyada alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va ingliz tillaridagi obraz va ramzlarni yuzaga keltiruvchi leksik birliklarning lingvistik va madaniy tahlili orqali ikki xalq til tafakkuridagi umumiylik va farqlar chuqur ochib beriladi. Bu esa nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy tadqiqotlar uchun ham keng imkoniyatlar ochadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Lakoff, G., Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. University of Chicago Press. https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3637995.html
2. Cruse, D. A. (2011). Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/meaning-in-language-9780199559466
3. Abdullayeva, G. (2015). Frazeologizmlarning milliy va umuminsoniy xususiyatlari. Toshkent: Muharrir.
4. Mamajonov, A. (2007). Oʻzbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan.
5. Kussmaul, P. (1995). Training the Translator. John Benjamins Publishing. https://benjamins.com/catalog/btl.1
6. Yusupov, U. (2009). Tarjimashunoslik va interferensiya masalalari. Toshkent: Fan.
7. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press. https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-language/9935BAA50301EAD9CB3AD973E17844DE
8. Halliday, M. A. K., Matthiessen, C. M. I. M. (2014). An Introduction to Functional Grammar. Routledge. https://www.routledge.com/An-Introduction-to-Functional-Grammar/Halliday-Matthiessen/p/book/9781444168871
9. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. — University of Chicago Press, 2003 https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3637995.html
10. Cruse, D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. — Oxford University Press, 2011. https://global.oup.com/academic/product/meaning-in-language-9780199559466
11. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. An Introduction to Functional Grammar. — Routledge, 2014. https://www.routledge.com/An-Introduction-to-Functional-Grammar/Halliday-Matthiessen/p/book/9781444168871
12. Kussmaul, P. Training the Translator. — John Benjamins Publishing, 1995. https://benjamins.com/catalog/btl.1
13. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. — Cambridge University Press, 2010. https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-language/9935BAA50301EAD9CB3AD973E17844DE
14. Mamazhonov, A.Oʻzbek tilining leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 2007. https://n.ziyonet.uz
15. Abdullayeva, G.Frazeologizmlarning milliy va umuminsoniy xususiyatlari. — Toshkent: Muharrir, 2015. https://ziyonet.uz
16. Yusupov, U. Tarjimashunoslik va interferensiya masalalari. — Toshkent: Fan, 2009. https://ziyonet.uz

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).